

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH OMILLARI

Ilxom I. To'xtanazarov

*FarDU harbiy ta'lif fakulteti uslubiy
tayyorlarlik sikli katta o'qituvchisi, dotsent, zahiradagi mayor*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining Turkiston tarixidagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Jadidchilik harakati tasodifiy hodisa emas, balki XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarning mahsuli ekanligi yoritib beriladi. Jadid mutafakkirlari o'z davrida xalqni jaholat, xurofot va qoloqlikdan xalos qilish, ilm-ma'rifat, taraqqiyot va erkinlik g'oyalarini yoyish yo'lida faol kurash olib borganlar. Ularning asosiy maqsadi Turkistonni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy uyg'onish va mustaqillikka erishish edi. Jadidlarning ilmiy va ma'rifiy merosini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, yoshlarni vatanparvarlik, tafakkur, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi. Muallif ushbu maqolada jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari, asosiy g'oyalari, ularning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni va bugungi davrdagi ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, Turkiston, jadidlar, ma'rifatparvarlik, ilmiy meros, milliy uyg'onish, ozodlik, taraqqiyot, Usuli jadid, ijtimoiy-siyosiy harakat, milliy g'oya, mustaqillik, ta'lif islohoti, madaniy yuksalish, xurofot, feodalizm.

KIRISH

Yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash bo'yicha o'tkaziladigan amaliy konferensiyalar mazkur masala bilan bog'liq muammolar va ular yechimining amaliy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Bunday koferensiyalarni tegishli soha va mavzu bo'yicha rahbar xodimlar, olimlar, mutaxassislar, amaliyotchilar ishtirokidagi amaliy konferensiyalar hamda talabalar, ta'lif oluvchilar, o'quvchilarning amaliy konferensiyalari (pedagoglar rahbarligida) shakllarida tashkil qilish mumkin [1].

Seminar-treninglar muayyan ta'lif-tarbiyaviy masalalarni hal qilish, amaliy vazifalarni bajarishning maqsadga muvofiq shakl, usullarini, shuningdek, yangi metodlarni

o‘rganish maqsadida tashkil qilinadi. U tegishli mutaxassis – seminar rahbari tomonidan olib boriladi. U seminar-trening mavzusi bo‘yicha asosiy ilmiy-metodik va amaliy ma’lumotlarni beradi, boshqalar qo‘sishma ma’ruza va axborotlar bilan ishtirok etishadi.

Tegishlicha muhokama, munozara, muzokaralar o‘tkaziladi va yakuniy qarorlar qabul qilinadi. Yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha o‘tkaziladigan seminar-treninglar uning mavzusi bilan bog‘liq muammolar va ular yechimining ilmiy-metodik va amaliy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Muayyan mavzuga bag‘ishlangan kechalar ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi tadbirlar sirasiga kiradi. Ular ma’naviy-ma’rifiy, adabiyot, san’at, musiqa, adabiy-musiqali, badiiy-havaskorlik konserti, humor, dam olish, raqs kechasi va boshqa turlarga bo‘linadi. Tegishli ta’lim-tarbiya maqsadlariga xizmat qiluvchi kechalar turi va mavzusi belgilanib tashkil qilinadi. Mavzuga bog‘liq ravishda zarur hollarda mutaxassisni jalb etish va u bilan tadbir rejasini ishlab chiqish lozim. Bunday kechalar yoshlarda tegishli bilim va ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish va mustahkamlab borishga xizmat qiladi.

Bahs-munozaralar ta’lim muassasasida ma’na-viy-ma’rifiy tarbiya masalalari, o’qitilayotgan fanlar mazmunini chuqurroq o‘rganish, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari va shu kabi boshqa yo‘nalishlardagi turli muammolarni muhokama qilish asosida ta’lim oluvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadlarida tashkil etiladi.

Bahs-munozara samarali bo‘lishi uchun uning aniq mavzusini oldindan belgilab olish lozim. Bahs-munozara mashg‘uloti rahbari ishtirokchilarning bahs-munozara davomida mavzudan uzoqlashib ketmasliklari, muloqot madaniyati qoidalariga riosa etishlarini nazorat qiladi va umumiyoq rahbarlikni olib boradi. Shuningdek, u tomonidan bahs-munozara davomida chiqarilayotgan xulosalarning to‘g‘rilig‘i kuzatib boriladi, zarur hollarda teg‘ishli tuzatishlar puxta asoslangan holda kiritiladi.

Bahs-munozaralar ishtirokchilarning mustaqil fikrlash, o‘z mulohazalarini to‘g‘ri, tushunarli bayon qilish, xulosalar chiqarish, ularning to‘g‘riliгини isbotlash, boshqalarni ting‘lash, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va boshqa ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday bahs-munozaralar ta’lim oluvchilarning bo‘sh vaqtlarini ta’lim muassasasidagi o‘quv-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq ravishda mazmunli tashkil qilish

imkonini beradi [1. 16].

Viktorinalar qiziqarli mashg‘ulotlar turkumiga kiradi. Ular ma’lum yo‘nalishdagi masalalar bo‘yicha ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini sinash hamda yangi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Viktorinalar asosan musobaqa-o‘yinlar shaklida, bir vaqtida bir yoki bir necha mavzular bo‘yicha tashkil etiladi. Viktorinalar o‘qitilayotgan fanlar mavzulari, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, psixologik vaziyatlar, turli yo‘nalishlardagi ijodkorlik va shu kabi boshqa yo‘nalishlardagi har xil qiziqarli savollarga javoblar va misol-masalalarni yechish bo‘yicha musobaqalar, g‘oliblarni rag‘batlantirish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Viktorina o‘tkazish uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rish, barcha zarur asbob, buyum, materiallarni va boshqa vositalarni qo‘yilgan maqsadga muvofiq tanlash va tayyorlash lozim. Viktorina mashg‘ulotini o‘tkazishda mashg‘ulot rahbari va uning yordamchilari tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshiradilar va mashg‘ulot jarayonida ishtirokchilarga tegishli tushuntirishlar berish, nazorat va rahbarlikni olib borish, goliblarni rag‘batlantirish va boshqa ishlarni bajaradilar [1. 160].

Davra suhbatlari yoshlarning muayyan guruhi bilan dolzarb deb hisoblangan masalalar bo‘yicha o‘tkaziladi. Bunday suhbatlar har turli mavzularda bo‘lishi mumkin. Ular ma’naviyat va ma’rifat, vatanparvarlik, o‘quv-tarbiya jarayoni, ayrim o‘quv fanlari bo‘yicha o‘zlashtirishni yanada yaxshilash va boshqa masalalarni o‘z ichiga oladi.

Davra suhbatining mavzusi oldindan belgilanib, zarur tayyorgarlik ko‘riladi. Suhbat jarayonida ishtirokchilarning o‘z fikrlarini erkin bildirishlarini va ularni tushunib tinglash, tegishlicha munosabat bildirish, to‘g‘ri, asosli xulosalarga kelishni ta’minlash kutilgan natijaga erishish uchun zarur shart hisoblanadi.

Davra suhbati rahbari ishtirokchilarning erkin fikr bildirishlarini, mavzudan uzoqlashmasliklarini, zarur bo‘lganda ularga to‘g‘ri yo‘nalishlar berishni, fikr- mulohazalar va xulosalarning to‘g‘riligini ta’minlab boradi.

To‘plangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ilg‘or tajribalar, eng avvalo, tegishli ta’lim muassasalarida, shu bilan birga, davlat, nodavlat, jamoat hamda nodavlat notijorat tashkilotlarda shakllanib

boradi.

Bunday tajribalar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida yuqori natijalarga erishganlik va buning uchun qo'llangan ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakl va usullarini o'z ichiga oladi. Shunday natija bergen ish tajribalarini aniqlash, o'rghanish, umumlashtirish, tavsiflash (yozma yoki boshqa shaklda bayon qilish) va tegishli muassasalar, tashkilotlar va mutaxassislar orasida ommalashtirish orqali mazkur yo'nalishdagi ishlar sifati va samaradorligini keng ko'lamda oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Buning uchun ilg'or tajribalarni aniqlash, o'rghanish va to'plab borish bo'yicha mutaxassislarning faoliyatini tashkil qilish va aniqlangan ilg'or tajribalar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar bankini tegishli tartibda tashkil qilish va to'ldirib borishni yo'lga qo'yish lozim.

Ilg'or tajribalarni ommalashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bular broshyura, jurnal yoki gazetada maqola, teleko'rsatuv, radioeshittirish, elektron axborot kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Bunday materiallarni pedagogik va metodik jihatlardan puxta tayyorlashni ta'minlash kerak [1. 193].

Jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rghanish. Bu yo'nalishdagi ishlarni tashkil qilish uchun tegishli mas'ul rahbariyatlar tomonidan ijrochilar belgilanadi. Ular ushbu maqsadlarga xizmat qiluvchi tegishli metodikalarni qo'llab yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida jamoatchilik fikrini va jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rghanishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradilar.

Bunda kuzatish, suhbat, savol-javob, anketa savollariga javoblar olish, test sinovi, natjalarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, zarur tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar, elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish. Ushbu vositalarning har biri yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'ringa va imkoniyatlarga ega. Ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda turli yosh davrlariga tegishli vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda foydalilanadi.

Bu vositalar tegishli ta'lim muassasalarida, davlat, nodavlat, jamoat hamda nodavlat notijorat tashkilotlarda: maktabgacha, maktab, kollej, lisey, oliy ta'lim, harbiy ta'lim muassasalari va shu kabilarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha turli tadbirlarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Odatda, bunday axborotlar bilan tanishgandan keyin ularning ma'no-mazmuni, g'oyasi, ahamiyati yuzasidan fikrlar almashish, kerak bo'lganda davra suhbati o'tkazish mumkin [1. 60].

Urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish. Bunday uchrashuvlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ma'lum tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchisi bo'lgan faxriylarning xotiralari, jonli hikoyalari tinglovchilar uchun tarixiy reallik bilan tanishish imkonini beradi.

Boshqa mas'ul xodimlar va mashhur shaxslar bilan uchrashuvlarda ularning ma'lum masalalar bo'yicha fikr-mulohazalari, taassurot va hikoyalari tinglovchilarga tegishli sohalar, ular bo'yicha erishilgan natijalar, olib borilayotgan buniyodkorlik ishlari, zamonning ilgor kishilari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi.

Bunday tadbirlar yosh avlodning Vatanning turli sohalardagi taraqqiyoti hamda qudratidan faxrlanish tuyg'ularini yuksaltirishi bilan ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning jiddiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyuştirish. Bu tadbirlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ishlarning zaruriy qismini tashkil qiladi.

Bunda harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni tadbiri ishtirok etuvchi turli yoshdagি o'smirlar uchun qiziqarli va hayajonli bo'lishi bilan ularda harbiy xizmatga qiziqishni, harbiy xizmatchilarga hurmatni oshiradi.

Mardlik saboqlari tadbirlari davlat mukofotlari bilan taqdirlangan harbiy xizmatchilar bilan uchrashuv, davra suhbati, shuningdek, yoshlarni turli davrlardagi mashhur sarkardalarning harbiy mahorati, harbiy voqealar tafsiloti, ularda qahramonlik, mardlik, jasorat ko'rsatgan vatanparvarlar haqidagi ibratli ma'lumotlar bilan tanishtirishga

bag‘ishlangan mashg‘ulotlar shaklida tashkil qilinadi. Bu tadbirlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining zarur qismini tashkil qiladi.

Ekskursiyalar uyushtirish har bir hududdagi mavjud imkoniyatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda harbiy qismga, harbiy ta’lim muassasasiga, turli muzeylar, ko‘rgazmalar, korxonalarga, tarixiy yodgorliklarga, mustaqillik yillarida bunyod etilgan ziyoratgohlarga va boshqa ob’ektlarga ekskursiyalar uyushtiriladi.

Bu ekskursiyalarda ta’lim oluvchilar harbiy qismdagi, harbiy ta’lim muassasasidagi kursantlar, askarlar hayoti va turmushi bilan yaqindan tanishtiriladi, muzey, ko‘rgazmalardagi eksponatlar asosida bilimlarini oshiradilar, borgan korxonalari faoliyati va ziyoratgohlar haqida o‘zları borib ko‘rgan, o‘sha joylarda eshitgan ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Bular esa yoshlarning Vatan hayoti, uning rivojlanishi yo‘lida olib borilayotgan ishlar bilan tanishishlari orqali ularning vatanparvarlik tuyg‘ulari yanada mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonining vujudga kelish sabablari, mohiyati va xususiyatlarini o‘rganish, uning natijalarini tahlil etib, to‘g‘ri baho bera olish hamda ulardan davlat taraqqiyoti yo‘lida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zamon bilan hamnafas qadam tashlayotgan har bir olim va fuqaroning asosiy vazifalaridan biriga aylanmog‘i zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat. 2002. – B. 159.
1. To’xtanazarov I. I. Jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati. – Samarqand: Ilm ziyo nashriyoti, 2022. – 150 b.
2. Qosimova M. Jadidchilik va ma’rifatchilik harakati tarixidan. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 200 b.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 180 b.
4. Rahmonqulov D. Turkistonda jadidchilik va uning ijtimoiy-siyosiy ildizlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 240 b.
5. Abduazizov B. Jadid adabiyoti va uning tarixiy ildizlari. – Toshkent: Fan, 2016. –

176 b.

6. Ziyo A. Jadidchilik va uning o‘rni haqida zamonaviy qarashlar // O‘zbekiston tarixi jurnali. – 2020. – №3. – B. 45-52.
7. Axmedov A. Jadidchilik harakatining g‘oyaviy asoslari va ularning ijtimoiy ahamiyati // Ma’rifat va taraqqiyot. – 2021. – №2. – B. 33-40.
8. Muminov N. Turkistonda ma’rifatchilik harakati va jadidchilik. – Toshkent: Sharq, 2015. – 210 b.
9. Tursunov S. Jadidchilik – o‘zbek milliy uyg‘onish harakati sifatida // Ijtimoiy fanlar. – 2018. – №4. – B. 60-68.
10. Rasulov O. O‘zbekiston ma’naviy hayoti va jadidchilik an’analari. – Toshkent: Universitet, 2019. – 134 b.